

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ УЗЛУКСИЗ ТА’ЛИМНИНГ БОШЛАНГ’ИЧ БО’Г’ИНІ

PRESCHOOL EDUCATION IS THE PRIMARY LINK OF CONTINUOUS EDUCATION

ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НЕПРЕРЫВНОЕ ОБУЧЕНИЕ

Annotasiya Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang’ich bo’g’ini sifatida tutgan o’rni, maktabgacha ta’limning bola hayotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Annotation: The role of pre-school education as a key link in lifelong learning and the importance of pre-school education in children's lives are highlighted.

Аннотация: Подчеркивается роль дошкольного образования как ключевого звена обучения на протяжении всей жизни и значение дошкольного образования в жизни детей.

Kalit so’zlar: Yaxlit ta’lim, uzluksiz ta’lim, ta’lim dasturi, maktabgacha ta’lim, oily ta’lim, ta’lim va tarbiya, yetuk kadr, ilmiy kuzatish, ilm fan ustuvorligi, xususiy sheriklik.

Key words: Integrated education, continuing education, curriculum, preschool education, higher education, education and upbringing, mature staff, scientific supervision, priority of science, private partnership.

Ключевые слова: Интегрированное образование, дополнительное образование, учебная программа, дошкольное образование, высшее образование, образование и воспитание, зрелые кадры, научное руководство, приоритет науки, частное партнерство.

**Mirazimova Muxabbat Normatovna-o’qituvchi
Rayimkulova Fotima G‘ayratjonovna- talaba**

KIRISH

Uzluksiz ta’lim – o’zaro mantiqiy izchillik asosida bog’langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir- birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi hisoblanadi. Uzluksiz ta’limni rivojlantirish haqida gapiradigan bo’lsak O‘zbekiston Respublikasining 23 – sentabr 2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar o’z aksini topgan. Mazkur Qonun XI bob va 75 moddadan iborat bo’lib, unda ta’limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ilg’or g’oyalar ilgari surilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi.

- Maktabgacha ta’lim;
- Umumi o’rta ta’lim;
- O’rta maxsus kasb hunar ta’limi;
- Oily ta’lim;
- Oliy o’quv yurtlaridan keying ta’lim;
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- Maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang’ich bo’g’ini bo’lib, mazkur ta’lim bola shaxsini sog’lom va yetuk shakllantirish maqsadini ko’zlaydi. U o’quvchi shaxsini ta’lim olishga tayyorlaydi, har tomonlama kamol topishini, o’qishga hissini uyg’otadi va bolani muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim haqida so’z borar ekan uning tarixiga alohida to’xtalib o’tamiz. Dastavval bolalar bog’chasi 60 – yillarda Rossiyada ochilishni boshladi. Bu davrdagi bog’chalarining asosiy vazifasi ta’lim va tarbiya emas, balki bolalarni bir joyda qarovda saqlab turish bo’lgan. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limning yuzaga kelishi o’tgan asrning 10 - 20 – yillariga to’g’ri keladi. Bu davrda Turkistonda xususiy bolalar bog’chalaridan tashqari boshqa maktabgacha tarbiya

muassasalari bo’lmagan. Biroq 1919 – yilda davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o’sib kelayotgan avlod sog’lig’ini saqlash, oziq –ovqat bilan ta’minlash masalalari bilan shug’ullanuvchi “Bog’chalarni himoyalash” kengashi tuzilgan. Bu ish qaysidir ma’noda aholining maktabgacha ta’lim muassasalariga bo’lgan talabning oshishiga va bu sohaning rivojlanishiga turtki bo’lgan. Ammo shunga qaramay bu davrda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmoqlarining kamligi, yetuk kadrlarning yetishmasligi, bolalarga ta’lim tarbiya berish sifati va bolalar qamrov darajasining pastligi asosiy muammolardan biri bo’lib qolavergan.

Hozirgi kunda O’zbekistonda balki, boshqa ko’plab davlatlarda maktabgacha ta’lim bo’yicha samarali islohotlar olib borilmoqda. Izchil islohotlarning natijasi sifatida yurtimizda ilk bor O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g“risida”gi Qarori imzolandi va maktabgacha ta’lim uzuksiz ta’lim tizimining ajralmas bo’lagiga aylanganligi, ta’lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi buning yorqin dalilidir. Bugungi kunda ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson hayoti davomida oladigan barcha ma’lumotlarning 70% ni besh yoshgacha bo’lgan davrda olishi aniqlangan. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim sohasida ta’lim va ilm fan ustuvorligini e’tirof etgan holda ta’limning sifati va erkinligini ta’minlash, davlat boshqaruvining samarali tizimini yaratish bo’yicha tizimli va keng doiradagi chora tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan:

maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini oshirish, hozirgi 62%dan kamida 80%ga yetkazish;

2022 – 2023 – yillarda olti yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90% ga, 2024 -2025 – yillar o’quv yili yakuniga qadar 100% ga yetkazish;

Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag’larini jalb qilish orqali 7000 dan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashhkilotlarini tashkil etish;

Maktabgacha ta’lim tashhkilot xodimlarining prosessional tayyorgarligi va mohoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish;

2022 – 2026 – yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlar malakasini oshirish.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonlarining ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish kabi vazifalar keying yillar uchun asosiy vazifalar qilib belgilanib olindi.

Mamlakatimizda 3 – 7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yillar hisobiga nazar tashlasak 2017 – yilda 27,7% tashkil etsa bu ko’rsatkich 2021 – yilga kelib 67,2% ni tashkil etgan. Bu albatta katta ko’rsatkich. Muhim o’zgarishlardan yana biri shundaki, davlat xususiy sheriklik doirasida oilaviy bog’chalar shaklida o’qitishning muqobil modeli amalga oshirildi. Butun respublika bo’ylab maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qisqa muddatli ya’ni, to’liq kunli bo’lmagan guruhlar kabi ta’limning muqobil shakllari joyiy etilmoqda.

XULOSA

Hukimatimiz tomonidan kelajagimiz davomchilari bo’lmish bolalarga qaratilgan e’tibor ularning jazzi ko’zlaridagi cheksiz mehr, murg’ak qalblaridagi go’zal orzulariga qanot bo’ladi. Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim tarbiya olayotgan bolajonlar – mamlakatimizning kelgusidagi istiqboldir. Shunday ekan uzluksiz ta’limning asosiy bo’g’ini bo’lgan maktabgacha ta’lim bolajonlarimizning keljak poydevori bo’lib xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasining 23 – sentabr 2020 yildagi O’RQ-637-sod “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g’risida”gi Qarori.

3. Muxabbat Normatovna Mirazimova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI // Academic research in educational sciences. 2021. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarda-gimnastika-mashg-ulotlarini-tashkil-etish-usullari> (дата обращения: 01.12.2021).
4. Mirazimova Muxabbat Normatovna Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va muktab ta'limiga tayyorlash//Mejdunarodnaya konferensiya Akademicheskix nauk. 2021/10//Rossiya.
5. Mirazimova M.N. Umumrivojlanuvchi gymnastikaning ilmiy-nazariy asoslari// ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.
6. M.N.Mirazimova.Maktabgacha yoshdagi bolalarda gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etish usullari// Актуальные вызовы современной науки. Сборник научных трудов. Выпуск 6(60). 2021/7/26.
7. Mirazimova, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA QAMRAB OLISHNING AHAMIYATI. *Scienceweb academic papers collection*
8. Mirazimova Muxabbat Normatovna. (2022). Increasing The Coverage of Preschool Education for Children with Developmental Disabilities or Mental Disorders. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 4, 85–87. Retrieved from <http://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/660>